

Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida, Toshkent shahrida jami 72 197,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 124,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	72 197,0	124,1
Bektemir	2 516,3	155,2
Mirzo Ulug'bek	5 545,5	126,2
Mirobod	7 176,6	120,4
Olmazor	5 323,5	173,2
Sergeli	2 841,7	113,1
Uchtepa	3 040,0	157,7
Chilonzor	3 796,3	113,1
Shayxontoxur	4 840,8	119,6
Yunusobod	7 906,5	112,7
Yakkasaroy	8 054,1	121,7
Yangi xayot	2 953,6	139,6
Yashnobod	5 108,8	126,3
Taqsimlanmagan hajim	13 093,3	114,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent shahrida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 64,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 123,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 35,4 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 16,6 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 132,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	14 229,6	7 109,5	4 403,5
<i>o'sish sur'ati, %</i>	143,0	71,4	2,3 m.
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	25 613,7	6 309,3	7 557,5
<i>o'sish sur'ati, %</i>	119,3	29,4	106,7
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	6 973,9	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	105,8	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 25 742,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 156,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 7,4 % ga ko'payib, 35,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,7 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ni tashkil etgan holda 39 480,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 9,7 % ni yoki 6 973,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd. so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Toshkent sh.	25 742,6	39 480,5	6 973,9	156,6	112,3	105,8
Bektemir	1 721,7	705,9	88,8	3,2 m.	71,1	103,5
Mirzo Ulug'bek	1 258,0	3 817,1	470,4	123,8	131,4	99,6
Mirobod	2 523,7	4 380,5	272,3	138,5	111,2	136,7
Olmazor	2 862,9	2 276,3	184,3	3,3 m.	113,0	91,6
Sergeli	348,0	2 074,5	419,2	158,5	110,9	99,4
Uchtepa	1 099,2	1 571,1	369,7	6,3 m.	106,3	136,2
Chilonzor	1 177,7	2 445,1	173,5	126,8	109,7	86,2
Shayxontoxur	2 296,5	2 332,1	212,2	115,0	127,7	93,8
Yunusobod	3 803,3	3 802,4	300,9	99,2	132,0	100,6
Yakkasaroy	3 191,9	4 646,4	215,8	163,3	103,9	114,4
Yangihayot	1 137,2	1 598,9	217,5	2,7 m.	106,3	113,1
Yashnobod	1 580,8	3 299,1	228,9	2,2 m.	105,8	104,7
Taqsimlanmagan hajim	2 741,8	6 531,2	3 820,4	140,5	110,5	105,6

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Uchtepa tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 6,3 m.), Olmazor tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 3,3 m.), Bektemir tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 3,2 m.) va Yangihayot (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,7 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yunusobod tumani (132,0 %), Mirzo Ulug'bek tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 131,4 %) va Shayxontoxur (127,7 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Toshkent shahri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M.Sabirova
71 203-88-18 (3522)

Manzil:

